

**MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA TARBIYA FANI MOSLASHUVCHANLIK  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

Sayyora To‘rayeva

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish  
milliy markazi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:**

Ushbu maqola malaka oshirish tizimida tarbiya fani moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari haqida yozilgan. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yangilash jarayoni pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik jarayonlarni tashkil etishi va boshqarishi, fan yutuqlaridan xabardor bo‘lishi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishi, ta’limni insonparvarlashtirishi va demokratlashtirishi, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltira olishi, ta’limni milliy yo‘naltirilganligini ta’minlashiga asoslangan innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, fan, moslashuv, kompetensiya, rivojlantirish, pedagogik, psixologik, kasbiy.

**Kirish.** Mazkur bo‘limda oldimizga tarbiya fani o‘qituvchining malaka oshirish tizimida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini pedagogik va psixologik xususiyatlarini mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va mazkur kompetentlikning rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim modelini qurish uchun nazariy holatni aniqlash vazifalarini qo‘ydik. Bu borada, tadqiqotimiz uchun “malaka oshirish” tushunchasining ko‘rib chiqilishi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Malaka oshirish ta’lim uzlusizligini ta’minlovchi kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda o‘zaro aloqador kasbiy-professional ta’lim bosqichlari bilan bir qatorda, uzlusiz ta’lim tizimiga bevosita kiruvchi muhim element bo‘lib hisoblanadi. Odatda, malaka oshirish ishchi-xodim va mutaxassisning ma’lum yo‘nalish bo‘yicha takomillashuvga ehtiyoji, uning kasbiy-professional o‘sishi va mutaxassisligining chuqurlashtirilishi bilan bog‘lanadi. Jumladan, S.G.Vershovskiy malaka oshirishni kasbiy-professionallik va kompetentlikning o‘sishi, yangi mutaxassislik va malakaga ega bo‘lmay turib, funksional majburiyatlarni o‘zlashtirish maqsadida qo‘srimcha dasturlar bo‘yicha o‘qitishning nazarda tutilishi deya ta’kidlaydi[1].

Shu nuqtai nazardan, malaka oshirishni qo‘srimcha bilim olish, asosiy mutaxassislik bo‘yicha va kasbiy-professional malakani egallangan bilim, xususiy faoliyatni anglab yetish asosida takomillashtirish sifatida ta’riflash mumkin. Malaka oshirishning strategik vazifalaridan biri pedagogi o‘zini o‘zi takomillashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning o‘z lavozim majburiyatlarini amalga oshirish funksiyalarini nazariy, ijodiy va amaliy tayyorgarlik jihatidan o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi va takomillashtiradi. Nazariy tayyorlik deganda, o‘zida turli ilmiy fan majmuasi ma’lumotlarini, shuningdek, kasbiy-professional faoliyat usullarini amalga oshirish usullari haqidagi bilimlarni namoyon etuvchi kasbiy-professional bilimlarni o‘zlashtirish tushuniladi.

**Tahlil va natijalar.** Malaka oshirish – bu mutaxassis-xodimning yanada murakkabroq mehnat funksiyalarni bajarishga tayyorligining shakllanishiga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati bo‘lib hisoblanadi. Ayrim tadqiqotlarda malaka oshirish psixologik nuqtai nazardan, ko‘rib chiqilgan.

A.H.Aminov ham malaka oshirish tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan va buning natijasida umumiy o‘rta ta’lim pedagog xodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish yo‘llari va vositalarini hamda o‘qitish jarayonining sifatini ta’minlovchi yangi pedagogik texnologiyalar loyihalarini ishlab chiqqan. Muallif malaka oshirish tizimining o‘quv-metodik majmuasini yangilab turish, uzlusizligini ta’minlash dolzarb vazifa ekanligini ta’kidlaydi. Biroq, uzlusizlik tamoyiliga asoslangan o‘quv-metodik majmua yaratish texnologiyasi va undan foydalanish metodikasi yoritilmagan.

A.K.Markovaning fikricha, malaka oshirish – bu inson tomonidan egallangan kasbiy-professional faoliyatni o‘zi qayta qurishidir, boshqa ma’lum insonlar yoki umumlashgan jamiyat tajribasining o‘z tajribalariga uyg‘unlashtirishidir. Mazkur xususiyatlar malaka oshirish kurslari o‘qituvchilaridan ta’lim jarayonida tinglovchilarning kasbiy-professional tajribalarini hisobga olish, mazkur tizimda o‘qitish uchun maxsus ishlab chiqilgan pedagogik ta’sirning boshqa shakl va metodlarini qo‘llash zarurligini ko‘zda tutadi[2].

Bizning fikrimizcha, bunday tayyorgarlik to‘laqonli malaka oshirish bo‘lib hisoblanmaydi. Ko‘proq u o‘zida mavjud kasbiy-professional masalalarni hal etishda chuqurlashtirib, ixtisoslashgan malakani mustahkamlashni namoyon etadi. Faoliyatda malaka oshirishni alohida (refleksiv) ustqurma sifatida ko‘rib chiqqan P.G.SHedrovitskiy mazkur malaka oshirish tizimini kadrlarning hamda mutaxassislar faoliyatining qayta tayyorlanishini dolzablashtirish, tafakkurni rivojlantirish va qayta tashkil qilish uchun javob beruvchi malaka oshirish tizimini to‘rtta asosiy tashkiliy yondashuvga ajratadi.

Birinchi yondashuv. Malaka oshirish tizimi ta’limda mavjud qoidalarga yo‘naltirilgan va ta’lim tizimini o‘z vaqtida va uzlusiz kadrlar bilan ta’minlashga javob beradi. Uning fikricha, bunday ta’lim tizimi malaka oshirish sohasining o‘z harakatini “sekinlashtiradi”, sababi malaka oshirish tizimiga hayotdan “ortda qolgan” xodimlar faoliyat yuritadi va butun jamoat tizimi malaka oshirishga qiziqish bildirmaydi[7-14].

Ikkinchi yondashuv. Malaka oshirish tizimi zamonga mos, ta’lim tizimi va umuman jamiyat tizimi rivojlanish odimlariga muvofiq ilg‘or kadrlarni tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Uchinchi yondashuv. Malaka oshirish tizimi uzlusiz ta’lim tizimi va dasturlari evaziga savodxonliklari darajasini oshirish va kamol toptirish maqsadida alohida insonlar rivojini ta’minlashi shart[3].

To‘rtinchi yondashuv tadqiqotimiz uchun juda dolzarb (aktual) bo‘lib hisoblanadi. Malaka oshirish bo‘yicha ishlarning asosiga loyihalashtirish, dasturlashtirish, tadqiqot va jamiyat tizimlari taraqqiyoti, amaliyotning rivojini kiritish shart. Bu esa, muallifning fikricha, malaka oshirish tizimi eski qoidalarga bo‘ysunishdan, xizmat ko‘rsatish roldan tashqariga chiqib, jamiyat tizimini refleksiv baholay boshlashini, uni tahlil qilish va loyihalash predmetiga aylantirishini anglatadi, ya’ni mintaqada ta’limni innovatsion harakatlar markaziga aylanishini anglatadi.

Tadqiqotimiz uchun ahamiyatli bo‘lgan malaka oshirishni bunday tushunish nuqtai nazaridan, pedagoglarni o‘qitishning yuqorida sanab o‘tilgan qobiliyatlarining va o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirilgan konseptual-texnologik modeli tadqiqotchi-olim T.A.Kaplovich tomonidan ishlab chiqilgan.

Muallif kurslararo o‘zaro hamkorlikdagi konseptual-texnologik modelini ishlab chiqishda qobiliyatlarni “namoyon etish” prinsipidan kelib chiqqan, uning mazmun-mohiyati quyidagilarda ifodalanadi:

- har qanday pedagogik ta’sir o‘quvchilarda jamiyat uchun zarur sifatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy vazifani amalga oshiradi, uni faqat individual faoliyatga mos vazifalari orqali hal qilish mumkin;
- o‘quv faoliyatining mazmuni o‘quvchilar uchun subyektiv ahamiyatli bo‘lishi va ular tomonidan o‘z faoliyati usullari va xususiyatlarini hisobga olib, qurilishi shart;
- o‘quvchilarning faoliyatda o‘zini belgilashi, uning o‘sishi pedagog uchun alohida boshqaruv obyekti bo‘lishi shart;
- bu boshqaruv ta’siri o‘quvchilar tomonidan tushunib, qabul qilinishi shart, o‘quv faoliyatining o‘zi esa – ular tomonidan “o‘ziniki” sifatida anglanishi shart;
- umumiy o‘quv jarayoni o‘quvchilarga pedagog tomonidan unga begona maqsadlar va vazifalar kabi “kiritilgan” emas, balki o‘zi tomonidan o‘zini o‘zgartirish va boshqalar sifatida subyektiv baholanishi shart [4].

Mazkur prinsipni amalga oshirish ta’limga o‘quvchilar va o‘quv harakatlarining nisbatini ta’minlovchi, bir tomonidan, pedagog tomonidan unga beriladigan meyoriy doiradagi faoliyatning refleksiv bo‘g‘ini ta’lim texnologiyalarini, boshqa tomonidan, shaxsiy qadriyatlar, maqsad va imkoniyatlarni kiritishni ko‘zda tutadi.

Kurslarda o‘quv jarayoni natijasi quyidagicha tus oladi: o‘quv jarayonida o‘zini aniqlash; o‘quv harakatlari; harakat refleksiyasi; harakat rekonstruksiysi; o‘quv jarayonining refleksiyasi.

Mualliflar tomonidan bir vaqtning o‘zida anglashga yordam beruvchi konstruktiv-metodik faoliyat va tahlil hamda tajribalarni umumlashtirish sohasida taqdijotchilik malakasining

quyidagi asosiy rivojlanish yo‘nalishlari shakllantirilgan: boshqa odamlar faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish asosida shaxsiy faoliyatga munosabat bo‘yicha o‘qituvchi shaxsining analitik yo‘nalganligini kuchaytirish; kurslarda o‘qituvchiga metodist-ekspert kabi pozitsiyani qo‘yadigan, uni yangilik mezonlari bo‘yicha boshqa tajribalarni baholashga qiziqtiradigan va amaliyotda foydalanish imkoniyatini beruvchi ish shaklini tashkil etish; o‘z tajribasini tanqidiy baholashning obyektivligini rivojlantirish uchun hamkorlikdagi faoliyatning turli shakllaridan faol foydalanish[5].

Tarbiya fani o‘qituvchining moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish kontekstida ekspertlik faoliyatiga tayyorlik ekspertiza predmeti sifatida namoyon bo‘ldi.

Ekspert pedagog bilan uning moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirishni tahlil qilib, uning kelgusi rivojini motivlashtiradi, shuning uchun o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentligi malakasini ichki tartibga solish natijasida o‘ziga munosabatda namoyon eta oladi.

YE.A.Fedorova tomonidan ishlab chiqilgan pedagogning ekspertlik faoliyatiga tayyorligi shakllanishi modelida o‘qish mantig‘i, maqsad va har bir bosqich vazifalari ta’riflangan, o‘quv jarayoni modelining tarkibiy bloklari va texnologiyasining o‘ziga xos xarakteristikasi berilgan. O‘quv maqsadlariga muvofiq, mualliflar ta’lim modeli mazmunini shartli ravishda, quyidagi uch blokka: motivatsion-loyihalashtiriluvchi, ta’limiy va refleksiv-baholovchi guruhlarga ajratadilar.

Har bir blok o‘z vazifasining umumiyligi modelini bajaradi. Jumladan, ta’lim moduli mazmuni uchinchi bloki konseptual-texnologik model va pedagog faoliyatini refleksiv tashkil etish ekspertizasini yaratish bo‘lib hisoblanadi.

Refleksiyaning asosiy predmeti bo‘lib esa, pedagog faoliyatida o‘rganish-mexanizmlari va tanqidiy bo‘g‘inni konseptual-nazariy baza (kasbiy-professional kompetentlik) bilan tashkil etish, innovatsion faoliyat rivojiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi va mualliflik dasturini rasmiylashtirish ko‘rinishida pedagogik tizim va texnologiyalar, tajriba-sinov loyihalar, turli hajmdagi va yo‘nalishdagi metodik ishlanmalar tashkil etadi.

Tafakkur nazariyasi vositasida o‘qitishda quyidagilar: refleksiya tushunchasi, konseptuallashtirish, sxemalashtirish protseduralari yetakchi bo‘lib hisoblanadi.

Muallif o‘quv jarayonini alohida tashkil qilish texnologiyasini ishlab chiqdi. Texnologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan: pedagog faoliyatining ekspertizasi muammolarini sanab chiqish; ekspertiza namunalarini yaratish; ekspertiza namunalarining mezonlarga ko‘ra (pedagog refleksiysi funksiyalarini ekspertda batafsil ko‘rib chiqish pozitsiyasida: umummadaniy vositalarni jalb etgan holda, bilish-empirik, konseptual, tushunchaviy-kategorial, mantiqiy-tafakkur va qadriyatli-dunyoqarashli) tahlil qilish; ekspert va pedagogning muloqotchanlik kommunikatsiya modelini qurish; ekspert nuqtai nazaridan, maksimal kasbiy-professional o‘zini namoyon etish faoliyat sharoitlarini qayta loyihalashtirish.

**Xulosa.** Tarbiya fani o‘qituvchilarda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetentligini takomillashishi muammolariga oid pedagogik adabiyotlar bo‘yicha nazariy va amaliy tahlillarimiz bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

Tarbiya fani o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatda moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish va boshqarish malakalari shakllanishida tarbiya fani o‘qituvchilar malaka oshirish tizimiga oid yondashuvlar hozirga qadar ishlab chiqilmagan.

Mazkur malaka va jarayonlar shakllanishining alohida tomonlari quyidagi mazmunlarda ifodalanadi: pedagoglar faoliyatning turli (metodik, ekspertlik, loyihalash, tadqiqotchilik, innovatsion) turlariga tayyorligi; ijodiy moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish, o‘zini o‘zi bilish, moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish va boshqarish, moslashuvchanlik kompetensiyasini tahlil qilish, moslashuvchanlik kompetensiyasini baholash, moslashuvchanlik kompetensiyasini tanqidiy yondashish, kasbiy-professional faoliyat malakalarining shakllanishi[6].

Tarbiya fani o‘qituvchida moslashuvchanlik kompetensiyasini rivojlantirish malakasi shakllanishining alohida jihatlarini quyidagilar asosida ajratib ko‘rsatish mumkin: loyihalashtirilgan va amalga oshirilgan maxsus dastur; sanab o‘tilgan malakalarning rivojlanishida texnologiyalardan, metodika, vosita va usullar, mos vazifalardan foydalanish; moslashuvchanlik kompetensiyasini tahlil qilish malakasiga ega bo‘lish bo‘yicha faoliyat algoritmini o‘rganish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz ta’lim tizimida islohotlarning amalga oshirilishi, bu islohotlarning malaka oshirish

## ADABIYOTLAR:

1. Ачилов, Н. А. (2019). Просветительские взгляды Аль-Хакима ат-Термези. Педагогическое образование и наука, (5), 16-19.
2. Achilov, N. THE GREAT TEACHER. SCIENTIST, THE OWNER OF ENCYCLOPEDIC KNOWLEDGE.
3. Abdugafforovich, A. N. (2019). Scientific theory of al-khakim at-termezi. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.
4. Ачилов, Н. А. (2018). Влияние учения Аль-Хаким Ат-Тирмизи в идеином наследии мыслителей influence of the teaching of al-hakim at-tirmisi in the ideal heritage of thinkers. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 70.
5. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. Science and innovation, 1(B3), 129-133.
6. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА

- ВОСИТАЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(11), 375-383.
7. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛК-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(6), 286-294.
8. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. European science, (3 (59)), 60-63.
9. Xolmurotova, S., & Adilova, S. (2022). ERIK BERNNING TRANZAKSION TAHLILIDAN TUZILMAVIY TAXLIL. Science and innovation, 1(B8), 391-393.
10. Nurkulova, G. (2022). THE PSYCHOLOGY OF SUBORDINATE BEHAVIOR. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(12), 204-207.
11. Sharafutdinova, K. G., Kulmatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
12. Haydarova, S. (2020). Teaching English with interesting activities. The Scientific Heritage, (55-4), 3-4.
13. Haydarova, S. (2022). An TEACHING ENGLISH WITH INTERESTING ACTIVITIES. Tadulako Science and Technology Journal, 3(1), 42-44.
14. SALAMOVA, N. A. (2021). IMAGES AND THEMES OF THE LITERATURE OF ANCIENT RUSSIA IN THE WORKS OF NS LESKOV. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 430-432.